Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li , Bobomurotova Manzura Panji qizi , mustaqil tadqiqotchilar	
Banklarda aktivlar portfellarining zamonaviy holati	851
Murodova Mohigul Chori qizi , katta o'qituvchi	
Vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda talabalarining o'quv faoliyatida o'zini o'zi tashkil etishini rivojlantirish muammosini organishning nazariy asoslari	855
Otajonova Maftuna Sultonmurodovna , tayanch doktorant	
Kredit-modul tizimida talabalarining mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish	859
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna , p. f. n.	
Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb etish innovatsion taraqqiyot omili sifatida	863
Sheraliyeva Saida Azatovna , katta o'qituvchi	
Paxta-to'qimachilik klasterlari mahsulotlari eksportini motivatsiyalash mexanizmi	868
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich , tayanch doktorant	
O'zbekiston Respublikasida soliq tavakkalchiligini boshqarishning hozirgi zamon muammolari	875
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	



Modern Methods of Tax Control: Analysis, Problems and Solutions.....	879
Ergasheva Malikakhon , Independent researcher	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish omili sifatida.....	884
Amanov Otabek Amankulovich	
Tashqi savdo – statistik o'rganishning obyekti sifatida.....	888
Ergashev Mirjon Yorqin o'g'li , tayanch doktorant	
Nodavlat notijoart tashkilotlarida maqsadli tushumlarga doir ishchi schotlarni takomillashtirish.....	893
Ne'matov Oybek Ismatullayevich , PhD	
Kichik biznes subyektlarida marketing strategiyasini qo'llash va uni takomillashtirish.....	897
Saidaxmedova Nodira Iloxmovna , DsC	
Библиометрический анализ области знаний налогового администрирования.....	902
Bokhodir Isroilov , Doctor of Economics, Boburshokh Ibragimov , PhD	
Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni tartibini takomillashtirish tahlili.....	909
Raximova Shaxlo Rajapboyevna , mustaqil tadqiqotchi	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati.....	915
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna , PhD	
Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ta'sirini boshqarish.....	922
Maxmudov Anvarjon Maxmudovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion faoliyatining ekonometrik tahlili.....	930
Achilov Uyg'unjon Ulug'bekovich , dotsent	
Семья и ее роль в воспитании молодежи.....	935
Зайналов Жахонгир Расулович , профессор, Бердикулов Журабек , ассистент	
Don mahsulotlari korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining boshqaruv hisobi, auditni qilishga oid tadqiqotlarga doir mulohazalar.....	938
Nosirov Ilhom Abbosovich , i.f.d., Abdilalimov Akmaljon Obidjanovich , mustaqil izlanuvchi	
Повышение эффективности маркетинговой деятельности издательско-полиграфических компаний..	943
Холмирзаева Феруза Абдуллаевна	
Совершенствование учета качества в предприятиях по хранению и переработке зерна.....	949
Холбеков Расул Олимович , доктор экономических наук, профессор	
Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy yo'nalishlari.....	956
Axmedova Nafisa Amriddin qizi	
Iste'molchilarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini takomillashtirish.....	962
Ruziyeva Shaxlo Raupovna	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilishning nazariy asoslari.....	968
Maxmudova Sharifa Elmurodovna , tayanch doktorant	
Tijorat banklarining chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar.....	972
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna , PhD	
Xalqaro lizing munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda uning rolini oshirish.....	978
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Raqamli banklar faoliyatini tahlil qilish (Tinkoffbank misolida).....	983
Nabiyeva Feruza Odilovna , tayanch doktorant, Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna	
Пути организации инновационных процессов в Узбекистане.....	988
Насиров Дилшод Фарходович	
Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе.....	992
Кодиров Бобур Абдулбори угли , магистр	
Tijorat banklari depozit bazasini optimallashtirish masalalari.....	1000
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Tijorat banklari operatsion xarajatlarini optimallashtirishning ayrim jihatlarini.....	1005
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Bank kapitali barqarorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish holati.....	1010
Vasiyev Alisher Samiyevich	
O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotining institutsional tahlili.....	1014
Hakimjon Hakimov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari.....	1019
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlarining samaradorligini oshirish.....	1024
Ilyasova Barno Axmadovna , mustaqil tadqiqotchi	
Xitoy sug'urta bozorida onlayn sug'urta xizmatlar tahlili.....	1028
Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)	
Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari.....	1033
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligini matematik simulyatsion modelashtirish.....	1041
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	



SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI MATEMATIK SIMULYATSION MODELLASHTIRISH

Artikov Ne'matulla Abdusalamovich

Toshkent Moliya Instituti "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Maqolada soliq tushumlarining soliq ma'muriyatchiligi faoliyatiga ta'sirini baholash maqsadida maxsus ekonometrik model orqali regression tahlil yordamida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq, daromad, ma'muriyatchilik, model, samara.

Abstract: The article examines the impact of tax revenues on the activities of the tax administration using a special econometric model using regression analysis.

Key words: tax, income, administration, model, efficiency.

Аннотация: В статье рассматривается влияние налоговых поступлений на деятельность налоговой администрации с использованием специальной эконометрической модели с помощью регрессионного анализа.

Ключевые слова: налог, доходы, администрирование, модель, эффективность.

KIRISH

Soliq tushunchasi davlatning o'z xarajatlarini moliyalashtirish uchun mamlakat fuqarolaridan oladigan daromadi sifatida tushuniladi. O'zbekiston soliq tizimida soliqlar ikki asosiy yo'nalish bo'yicha tasniflanadi: bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri soliqlar. Samarali soliq ma'muriyatchiligi, davlatning o'z xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur daromad olish, davlat xizmatlarini uzluksiz ta'minlash, har bir soliq to'lovchining davlat xarajatlarini moliyalashtirishda adolatli ishtirokini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Maqolada O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligining samaradorlik tushunchasini o'rganish, soliq ma'muriyatchiligida samaradorlikni belgilovchi omillar va samaradorlikni ta'minlash uchun qanday choralar ko'rilishi haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqsadga muvofiq soha faoliyati hisobotlaridan olingan o'tgan yillardagi statistik ma'lumotlarga asoslanib, soliqlarning davlat soliq tushumlari tarkibidagi salmog'i hamda soliq ma'muriyatchiligi faoliyat samaradorligiga e'tibor qaratilmoqda. Soliq ma'muriyatchiligi faoliyatidagi samaradorlikning yaxshilanishi, soliq tushumlaridagi ortishga olib kelishi aniqlandidi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

"Soliq ma'muriyatchiligi - hozirgi zamon sharoitida davlat soliq xavfsizligini ta'minlashning muhim yo'nalishi. Bunda soliq to'lovchilarning soliq to'lay olish yoki davlatning daromad olish qobiliyati balans e'tiborda bo'lishi lozim"¹ deb ta'kidlaydi Chun-Yan Kuo. Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining moliyaviy sektor barqarorligini baholash bo'yicha qo'shma dasturiga muvofiq mamlakatning soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini ta'minlash bo'yicha choralar solikli daromadlar darajasidan kelib chiqib amalga oshiriladi². Shuningdek, Xalqaro valyuta jamg'armasining yangi tahrirdagi Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari to'plamida ham solikli daromadlar ijrosini ta'minlashga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, unda iqtisodiy o'tish davridagi hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda fiskal baza shakllanishi, xususan muvozanatlashgan davlat byudjeti alohida ustuvorlik kasb etishi ta'kidlab o'tilgan³.

Bundan tashqari Osiyo taraqqiyot banki tomonidan o'tkazilgan vaziyatli tahlilda 1997-yilgi Osiyo moliyaviy inqirozi va 2008-yildagi jahon moliyaviy inqirozi sharoitida tashkilotga a'zo Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya

1 Kuo, C. Y. Estimation of Tax Revenue and Tax Capacity./ C. Y. Kuo//JDI Executive Programs.- 2015. – №. 2015-08.- 34p.

2 The World Bank Group & International Monetary Fund (2005). Financial Sector Assessment Handbook. Washington DC, US.

3 International Monetary Fund (2019). Financial Soundness Indicators Compilation Guide. Washington DC, US.



davlatlarida inqiroz holati yuzaga kelishida, moliyaviy xavfsizlik tizimi noto'g'ri yo'lga qo'yilgani hamda xavf darajasini ko'rsata oladigan va o'z vaqtida xavfdan ogohlantira oldigan ko'rsatkich to'g'ri tanlanmagani oqibatida og'ir moliyaviy-iqtisodiy bo'hron yuzaga kelgani tasdiqlandi⁴. Inqiroz fonida bir tomonda korxonalarning og'ir moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi sababli byudjetga tushumlar kamaygan bo'lsa, ikkinchi tomondan ishsizlik darajasi keskin ortishi sababli himoyaga muhtoj qatlami ko'payishi byudjet mablag'lari taqchilligi kuchaygan bir paytda davlatni og'ir ahvolga solib qo'ydi. Vaholangki, moliyaviy xavfsizlik tizimida byudjet ko'rsatkichlaridan ko'ra ko'proq fond bozori, bank tizimi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar monitoringiga katta e'tibor qaratilgan edi.

Ta'kidlash joizki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlaridan keyin global moliyaviy xavfsizlik tizimidagi kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlanganidan so'ng xalqaro tashkilotlar va hukumatlar hamkorlikda yangi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish ustida ishlay boshladilar. Natijada xalqaro va davlat miqyosida moliyaviy xavfning oldini olishga qaratilgan dastlabki xavf signallari (early warning signals) tizimi, xavfdan kutilayotgan zararni boshqarish bo'yicha xavfsizlik to'rlari (safety nets), xavf darajasini pasaytirish va undan ko'riladigan zararni kompensatsiyalash bo'yicha xavfsizlik yostiqlalari (cushioning) tizimlari joriy qilinib, Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan boshqarib kelinmoqda. Bularning barchasida moliya bozori, bank va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda fiskal ko'rsatkichlar ham o'rin oldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ma'lumki, ma'lumotlarni tahlil qilishda regression tahlil eng keng tarqalgan usullardan biri bo'lib hisoblanadi. Tushumlarni tahlil va prognozlashda sonli ma'lumotlar bilan juda ko'p ish ko'riladi va turli kattaliklar orasidagi bog'liqlikni kuzatish, tahlil qilish zaruriyati tug'iladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyida biz soliq tushumlarining soliq ma'muriyatchiligi faoliyatiga ta'sirini baholash maqsadida maxsus ekonometrik model orqali regression tahlil asosida O'zbekiston soliq amaliyotida soliq munosabatlarining har qaysi ishtirokchilari tomonidan solikli daromadlar darajasining soliq ma'muriyatchiligi samaradorligidan kelib chiqishini iqtisodiy modellash va soliq ma'muriyatchiligi samaradorligining integral ko'rsatkichini ishlab chiqishni ko'rib chiqamiz.

Berilgan son qiymatlarni tahlil qilishda erkli o'zgaruvchi (X) va erksiz (Y) o'zgaruvchilar qaraladi. Regression tahlil ana shu o'zgaruvchilar qiymatlarining o'zgarishini tushuntirib beradi. Regressiya tenglamasi – bu o'zgaruvchilar orasidagi statistik bog'lanishning formulasi. Agar bu formula chiziqli bo'lsa, chiziqli regressiya to'g'risida so'z yuritiladi. Ikki o'zgaruvchi orasidagi statistik bog'lanish formulasi juft regressiya deyiladi, bir nechta o'zgaruvchilar orasidagi bog'lanish esa ko'p omilli regressiya deyiladi.

Korrelyatsion tahlilning ikkinchi vazifasi hodisalar (o'zgaruvchilar) o'rtasidagi bog'lanish zichligini aniqlashdan iboratdir. Bu korrelyatsion indeksi va chiziqli korrelyatsion koeffitsiyentlarning sonli qiymatlarini hisoblash yo'li bilan tekshiriladi. Agar $R=1$ ($r=1$) bo'lsa, unda o'rganilayotgan omillar o'rtasida funktsional bog'lanishlar mavjud bo'ladi. Agar $R=0$ ($r=0$) bo'lsa, bu holda omillar o'zaro bog'lanmagan bo'ladi.

Bog'lanish zichligi R va r larning sonli qiymatlari bo'yicha baholashda quyidagi shartli tasniflashdan foydalanamiz:


- 0,1 dan 0,3 gacha - kuchsiz bog'lanish;
- 0,3 – 0,65 - o'rtacha zich bog'lanish;
- 0,65 – 0,80 - o'rtachadan zichroq bog'lanish;
- 0,80 – 0,99 - zich bog'lanish.

Korrelyatsion indeks R juftli omillar o'rtasidagi bog'lanish zichligini baholashda qo'llaniladi. Chiziqli bog'lanishlar zichligini aniqlashda korrelyatsiya koeffitsiyentidan foydalanish mumkin. Korrelyatsiya koeffitsiyenti r ning manfiy qiymati hodisalar o'rtasida teskari bog'lanish mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Biroq, shuni alohida ta'kidlash lozimki, erishiladigan natijaga omillar, ko'rsatkichlar ta'sirini baholashning ikki va undan ko'p omillarga asoslangan regression-korrelyatsion bog'lanishlari tahliliga asoslangan model ko'rsatkichlarni hisoblash yagona uslubiyotining yo'qligi sharoitida o'zining ma'lum cheklov va kamchiliklariga ega.

Shu boisdan, yuqoridagi mulohaza va ilmiy-tahliliy ishlardan olingan xulosalarni inobatga olib, maqola doirasidagi izlanishimizda Toshkent viloyati Davlat soliq boshqarmasi soliq ma'muriyatchiligi samaradorligiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar asosida o'ziga xos ekonometrik modeli yaratishni maqsad qilib qo'ydik. Ekonometrik modelni yaratishdan oldin, unda ishtirok etuvchi omillar dinamik o'zgarishini (2010-2020 yillar moboynda) tavsiflovchi empirik ma'lumotlar asosida grafik tuzamiz va tahlil qilamiz (1-rasm).

4 Asian Development Bank. (2015) Financial soundness indicators for financial sector stability: A tale of three asian countries. Mandaluyong City, Philippines.



1-rasm: 2016-2020-yillarda o'rtacha bitta soliq xodimiga to'g'ri keluvchi soliq tushumi va unga ta'sir qiluvchi omillar dinamik o'zgarishining grafik ko'rinishi, (foizda)⁵

1- rasmda soliq tekshiruvlarining samaradorligi ko'rsatkichlari sifatida, o'rtacha bitta soliq xodimiga to'g'ri keluvchi soliq tushumi, bitta tekshiruvchiga to'g'ri keluvchi qo'shimcha hisoblangan soliq summasi, bitta tekshiruvga to'g'ri keluvchi o'rtacha soliq huquqbuzarliklarning soni vizual – grafik shaklida keltirilgan. O'rtacha bitta soliq xodimiga to'g'ri keluvchi soliq tushumi hamda bitta tekshiruvchiga to'g'ri keluvchi qo'shimcha hisoblangan soliq summasi grafiklari 2010-yildan 2018-yilga qadar barqaror o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan, 2018–2020-yillar davomida ularning grafigi “sakrash xususiyatiga ega bo'lgan. Bitta tekshiruvga to'g'ri keluvchi o'rtacha soliq huquqbuzarliklarning soni grafigi o'zgarishi 2010-yildan 2019-yilga qadar deyarli barqaror xarakterga ega bo'lgan, 2020-yilga kelib pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Dastlab, erkli va erksiz o'zgaruvchilar ajratib olinib, ular asosida quyidagi ko'rinishdagi iqtisodiy model yaratildi (1-jadvalga qarang)⁶.

1- jadval: Toshkent viloyati Davlat soliq boshqarmasida soliq ma'muriyatchiligiga ta'sir qiluvchi omillar, 2011-2020 yillar uchun⁷

Yillar	Soliq xodimlari soni	O'tkazilgan soliq tekshiruvlarining soni	O'rtacha bitta soliq xodimiga to'g'ri keluvchi soliq tushumi, mlrd. so'mda
2011-yil	1094,0	1563,0	0,79
2012-yil	1083,0	1439,0	0,96
2013-yil	1080,0	1457,0	1,17
2014-yil	1069,0	1449,0	1,54
2015-yil	1078,0	1410,0	1,65
2016-yil	1084,0	1341,0	1,91
2017-yil	1084,0	1275,0	2,33
2018-yil	1262,0	823,0	2,86
2019-yil	1204,0	486,0	4,88
2020-yil	1221,0	848,0	2,04

Bunda, Toshkent viloyati Davlat soliq boshqarmasi tizimida ishlagan xodimlar soni; o'tkazilgan soliq tekshiruvlarining soni; o'rtacha bitta soliq xodimiga to'g'ri keluvchi soliq tushumi; model parametrlari.

5 O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Toshkent viloyati Davlat soliq boshqarmasidan olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

6 Muallif tomonidan, "Microfit 10" dasturida amalga oshirildi.

7 Toshkent viloyati soliq boshqarmasidan olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Regression tahlil natijasida koeffitsiyent 20,7898 ga, -0,0113ga, -0,0050 ga tengligi ma'lum bo'ldi. Regressiya koeffitsiyentlarining t-statistikasi mos ravishda 4,2586, -3,1192, -6,8182 ga tengligi hisoblanadi. Ishonch oralig'ining quyi va yuqori chegaralari mos ravishda, uchun 9,2462-32,3334 , -0,0199, -0,0027, -0,0067, -0,0033 belgilandi. Standart xatosi 4,8818ni, standart xatosi 0,0036 ni, ning standart xatosi 0,0007ni tashkil qilishi ma'lum bo'ldi.

2-jadval: Regressiyon tahlil natijasi⁸

Ko'rsatkichlar	Koeffitsiyentlar	Standart xato	t-statistika	P-qiyamat	Pastki chegara 95%	Yuqori chegara 95%
Y-Kesishma	20,7898	4,8818	4,2586	0,0038	9,2462	32,3334
Φ_1 o'zgaruvchi	-0,0113	0,0036	-3,1192	0,0169	-0,0199	-0,0027
Φ_2 o'zgaruvchi	-0,0050	0,0007	-6,8182	0,0002	-0,0067	-0,0033

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi regressiya tenglamasini tuzamiz.

$$\hat{Y} = 20,7898 - 0,0113 \Phi_1 - 0,0050 \Phi_2 \quad (2)^9$$

3-jadval: Regressiya tenglamasining ahamiyatlilik darajasi tahlili

Ko'rsatkichlar	df	SS	MS	F	Qiyamati F	Regressiya statistikasi	
Regressiya	2	11,7185	5,8593	42,0058	0,0001	Umumiy R	0,9608
Qoldiq	7	0,9764	0,1395			R-kvadrat	0,9231
Jami	9	12,6949				Tuzilgan R-kvadrat	0,9011
						Standart xato	0,3735

Regressiya tenglamasi tuzilgandan so'ng, model gipotezasi tuzildi. U quyidagicha ifodalanadi:

- $H_0: F_1 = 0, F_2 = 0$, ko'p omilli regressiya tenglamasi ahamiyatsiz; (3)
- $H_0: F_1 \neq 0, F_2 \neq 0$, ko'p omilli regressiya tenglamasi ahamiyatli. (4)

Belgilangan gipotezani tekshirishda Fisherning kvantil taqsimoti dan foydalanamiz. tengsizlik qanoatlanirilsa, tuzilgan regerssiya tenglamasini ahamiyatli, deb hisoblashimiz mumkin. Tahlilda = 42,0058 ga tengligini ko'ramiz. = 4,737414128 ga tengligini inobatga olib, tuzilgan regressiya tenglamamiz bashorat uchun to'liq yaroqli, deb xulosa qilishimiz mumkin. Erkli o'zgaruvchi variatsiyasining 0,9231 qismi erksiz o'zgaruvchilar variatsiyasi hisobidan yuz berganligi ma'lum bo'ldi. O'rtacha bitta soliq xodimiga to'g'ri keluvchi soliq tushumining 0,9608 qismi Toshkent viloyati Davlat soliq boshqarmasi tizimida ishlagan xodimlar soni hamda o'tkazilgan soliq tekshiruvlarning soni bilan tushuntiriladi. Toshkent viloyati Davlat soliq boshqarmasi tizimida ishlagan xodimlar sonining 1% ga oshishi o'rtacha bitta soliq xodimiga to'g'ri keluvchi soliq tushumini 6,32% ga, o'tkazilgan soliq tekshiruvlarning sonining 1% ga oshishi esa o'rtacha bitta soliq xodimiga to'g'ri keluvchi soliq tushumini 3% ga sabab bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq tushumlari darajasining soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligiga ta'sirini baholashning iqtisodiy ko'rsatkichlarini matematik modellar orqali prognoz qilish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- iqtisodiy ko'rsatkichlarni matematik modellar orqali tahlil qilishda unga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniq belgilash kerak va bog'liqlik darajasini aniqlab regression tahlillarni amalga oshirish lozim;
- soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligining miqdoriy ifodasini aniqlashda soliq to'lovchilari soni dinamikasini ham inobatga olgan holda ko'rsatkichlar qanchalik aniq ehtimollikda prognoz qilinsa mam-lakatda fiskal bazani shakllantirishga oid soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligi ta'minlanishi uchun ko'rilajak tadbirlar samaradorligi oshishi ta'minlanadi;

8 Muallif tomonidan, "Microfit 10" dasturida amalga oshirildi.

9 Muallif tomonidan tuzildi.



- soliq tushumlarining soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligiga ta'sirini baholashning iqtisodiy ko'rsatkichlarini prognozlashda ilmiy asoslangan va jahonning rivojlangan davlatlari amaliyotida qo'llaniladigan usullarni qo'llagan holda yagona uslubiyotni ishlab chiqish lozim;
- iqtisodiy ko'rsatkichlarni statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilishda natijaga ta'sir etuvchi qanchalik ko'proq omillar o'rganilsa, kelgusi davr uchun prognoz ko'rsatkichi shunchalik aniqroq bo'lishiga erishiladi;
- regression modellar orqali prognozlash eng keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi va tahlil amalga oshirilganda aniqroq ko'rsatkichga ega bo'lishi uchun, ko'p yillik ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir;
- ekonometrik tahlillarning ko'rsatishicha, soliq tushumlari darajasi ijobiy ko'rsatkichlarining dinamik rivojlanish qonuniyatiga ega bo'lishi soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga, davlatning fiskal imkoniyatlarini oshirishning maqsadli rivojlanishiga salbiy ta'sirsiz erishishni ta'minlaydi.

Umumiy xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, soliq tushumlarining soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligiga ta'sirini baholashning iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish va istiqbolini aniq prognoz qilish, mamlakatda moliyaviy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, davlat fiskal imkoniyatlari bardavomligi va iqtisodiyot real sektorida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Kuo, C. Y. Estimation of Tax Revenue and Tax Capacity./ C. Y. Kuo//JDI Executive Programs.– 2015. – №. 2015-08. – 34 p.
2. The World Bank Group & International Monetary Fund (2005). Financial Sector Assessment Handbook. Washington DC, US.
3. International Monetary Fund (2019). Financial Soundness Indicators Compilation Guide. Washington DC, US.
4. Asian Development Bank. (2015) Financial soundness indicators for financial sector stability: A tale of three asian countries. Mandaluyong City, Philippines.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.